

TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA RISKINI ANIQLASH, BAHOLASH VA MONITORING QILISH

*Andijon davlat texnika instituti “Buxgalteriya hisobi
va menejment” kafedrasi o‘qituvchisi Arziboyeva
Ravzahon Sattarovna, Andijon davlat texnika instituti
Muhandislik iqtisodiyoti va boshqariv fakulteti BIA-115-
guruh 4-kurs talabasi*

Salimov Adhamjon Sobirjon o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida valyuta riskini aniqlash, baholash va monitoring qilish tizimi tahlil qilinadi. Valyuta kursining o‘zgarishi banklar uchun muhim xavf omili bo‘lib, uni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri baholash moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada risklarni aniqlash usullari, baholashda qo‘llaniladigan asosiy moliyaviy modellar, shuningdek, monitoring tizimining tarkibiy qismlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: valyuta, Hedjing, stress-test, risk

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi ko‘plab ichki va tashqi omillarga, xususan, valyuta bozoridagi o‘zgarishlarga bevosita bog‘liqdir. Xalqaro moliyaviy integratsiyaning kuchayishi, savdo aloqalarining kengayishi va kapital harakatining jadallashuvi sharoitida tijorat banklari faoliyati tobora ko‘proq valyuta risklariga duch kelmoqda. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy ta’sirlarning kuchayishi fonida valyuta kursining o‘zgarishi bank balansiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek tashqi aloqalarning kengayishi, eksport-import shartnomalarining oshishi va xorijiy valyutalarning qulay muoalasi yurtizmida valyuta munosabatlari yanada kengayishiga yordam bermoqda. Markaziy bank 2024-yilgi statistikasiga ko‘ra, ichki valyuta bozorida chet el valyutasidagi umumiy taklif hajmi (Markaziy bank intervensiyalarini hisobga olmaganda) 34,4 mlrd dollarni tashkil etib, shundan 14,7 mlrd dollari (43 foizi) xo‘jalik yurituvchi subyektlar, 13,5 mlrd dollari (39 foizi) banklar va jismoniy shaxslar hamda 6,2

mlrd dollari (18 foizi) markazlashgan manbalar hisobiga qondirildi.¹ Shuningdek, ushbu davrda chet el valyutasiga bo'lgan talabning umumiy hajmi 42,5 mlrd dollarga yetib, 2022-yilga nisbatan 16 foizga oshdi. Ushbu talabning 78,6 foizi yuridik shaxslar va 21,4 foizi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keldi. Moliya bozorlarida bu kabi talab va taklif bo'lgani yaxshi, lekin uni nazorat qilish va kelib chiqishi mumkin risrlarni oldini olishni unutmaslik lozim.

ASOSIY QISM

Valyuta riski – bu xorijiy iqtisodiy, kredit va boshqa valyutaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida bir valyutaning boshqa valyutaga nisbatan qiymatining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlar xavfidir. Valyuta risklarining asosiy sababi – almashuv kurslarining doimiy “suzib yurishi” bo'lib, ularning harakatini aniq oldindan bashorat qilish juda mushkul. Shuning uchun valyuta riski pul majburiyatlarining haqiqiy qiymati vaqt o'tishi bilan o'zgarishiga asoslanadi va valyuta bozoridagi barcha ishtirokchilar bu xavflarga duch kelishadi.²

Banklarda valyuta risklari qanday aniqlanadi?

1. Ochiq valyuta pozitsiyasini tahlil qilish

Bankning xorijiy valyutadagi aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi tafovut ochiq valyuta pozitsiyasi deb ataladi. Bu pozitsiya quyidagicha aniqlanadi:

Ochiq pozitsiya=Valyutadagi aktivlar–Valyutadagi majburiyatlar

Musbat farq — uzun pozitsiya: bankda valyutadagi aktivlar majburiyatlardan ko'p.

Manfiy farq — qisqa pozitsiya: bankda valyutadagi majburiyatlar aktivlardan ko'p.

Bu tafovutlar valyuta kurslarining o'zgarishi bilan bankning foyda yoki zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin.

2. Valyuta riskini baholash usullari

Banklar valyuta riskini aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanadilar:

¹ cbu.uz. Markaziy bank yillik hisoboti 2024-yil uchun

² Ismailov, B. . (2024). REGULATION OF CURRENCY RISKS IN COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(6), 5–7. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/33637>
More Citation Formats

a) **Value at Risk (VaR)**- bu moliyaviy riskni baholashda keng qo'llaniladigan statistik usul bo'lib, u ma'lum vaqt oralig'ida, belgilangan ishonchlilik darajasida, portfel yoki aktivning maksimal mumkin bo'lgan yo'qotishini aniqlaydi. Tijorat banklari VaR usulidan valyuta riskini aniqlash va boshqarishda foydalanadilar.

Tijorat banklari VaR usulidan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- **Valyuta riskini baholash:** Xorijiy valyutadagi aktiv va majburiyatlar o'rtasidagi tafovutdan kelib chiqadigan riskni aniqlash.
- **Kapital yetarliligini baholash:** Potensial yo'qotishlarni hisobga olib, bank kapitalining yetarliligini aniqlash.


Aytaylik, bankda 10 million soʻmlik aktiv mavjud va uning kunlik rentabelligi standart ogʻishi 2%. 95% ishonchlilik darajasida, 1 kunlik VaR quyidagicha hisoblanadi:

$VaR=1.65 \times 0.02 \times 10,000,000=330,000$. Bu shuni anglatadiki, 95% ehtimollik bilan, bank 1 kun ichida 330,000 so‘mgacha yo‘qotishi mumkin

b) Stress-testlar

Valyuta kurslarining keskin o'zgarishi holatida (masalan, 20% devalvatsiya) bankning moliyaviy holatiga ta'siri tahlil qilinadi.

1-rasm. Banklar qirqimida xorijiy valyuta bo'yicha likvidlik stress-testi natijalari, % (2025 yil 1 iyul holatiga)



Ushbu rasm markaziy bank tomonidan o`tkazilgan **STRESS-TEST**ga misoldir.

Unga ko'ra, Xorijiy valyuta bo'yicha likvidlik stress-testi natijalariga ko'ra, bank tizimida yuqori ulushga ega bo'lmagan ayrim banklarda likvidlik muammolari yuzaga kelishi mumkin. 2025 yil I yarim yillik yakuni bo'yicha, xatarli ssenariyda 3 ta bankda sof pul kiriminining manfiy saldosi kuzatilishi mumkin.³

c) Tsenariyli tahlil

Turli iqtisodiy vaziyatlarda (inflyatsiya, tashqi qarz oshishi) valyuta riskining bank faoliyatiga ta'siri oldindan baholanadi.

3. Valyuta pozitsiyalarining monitoringi

Banklar o'zining valyuta pozitsiyalarini har kuni yoki real vaqt rejimida kuzatib boradi. Bu monitoring quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Xorijiy valyutadagi ssudalar

Valyutadagi depozitlar

Forex bozoridagi pozitsiyalar

Derivativ vositalar (valyuta fyucherslari, opsiyonlar)

4. Markaziy bank va xalqaro standartlarga muvofiq nazorat

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklariga nisbatan ochiq valyuta pozitsiyasi chegaralarini belgilaydi. Masalan, bankning umumiy kapitaliga nisbatan ochiq pozitsiyasi ma'lum foizdan oshmasligi kerak.

Xulosa qilganda, Tijorat banklarida valyuta riski, banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiladigan muhim omil bo'lib, uning aniqlanishi, baholanishi va monitoring qilinishi bank faoliyatining asosiy qismidir. Banklar bu riskni boshqarish uchun turli usullardan foydalanadilar, shu jumladan VaR, stress-tester va ssenariyli tahlil.

Shu tariqa, valyuta riskini samarali boshqarish orqali banklar o'zlarining moliyaviy holatini barqarorlashtirishga va xavflarga qarshi turishga muvaffaq bo'lishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бекназарова Н. Т. БАНКЛАР ВАЛЮТА ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //PEDAGOG. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 509-513.

³ Markaziy bank Moliyaviy barqarorlik sharhi

2. Ибодуллаева М. Т. ВАЛЮТА СИЁСАТИНИ ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА БАНКЛАРНИНГ ВАЛЮТА ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 1610-1622

3. Красовский Н. В. Хеджирование как метод управления валютными рисками //Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2012. – №. 1. – С. 44-47. Красовский Н. В. Хеджирование как метод управления валютными рисками //Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2012. – №. 1. – С. 44-47

4. Cbu.uz